

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM , FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi

№
2022 « 2 »

Atamayzova O.

2023.1

«TASDIQLAYMAN»

**Qoraqalpog‘iston tibbiyot
instituti rektori**

**FARMAKOLOGIYA
MODUL DASTURI**

Bilim sohasi:	900000	- Sog‘liqni saqlash ba ijtimoyi ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	910000	- Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi:	60910600	- Tibbiy profilaktika ishi

Nukus – 2023

Fan/modul kodi		O'quv yili 2023-2024	Semestr 3-4	Kreditlar 4	
	Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili qoraqalpoq, o'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Farmakologiya	60		60	120

1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni.

Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni amaliy bajarishga o'rgatadi va orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.

Farmakologiya moduli o'quv rejaning klinikagacha bo'lgan fanlar blokiga taalluqli bo'lib, 2 va 3 kurs talabalari uchun mo'ljallangan. Farmakologiya fanidan semestr davomida 1 ta "Oraliq nazorat", "Ob'ektiv-amaliy imtixon" (OAI) rejalashtirilgan va "Yakuniy nazorat" bilan yakunlanadi. Farmakologiya fanini o'qitish uchun biologiya, biokimyo, gistologiya, anatomiya, normal fiziologiya, patologik fiziologiya, patologik anatomiya, mikrobiologiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, lotin tili kabi fanlar nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Terapiya, xirurgiya, ginekologiya, oftalmologiya, otolaringologiya, endokrinologiya, kardiologiya, onkologiya, nevrologiya kabi fanlarni o'zlashtirishda asqotadi.

O'quv modulining maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: talabalarga dori guruhlarini, ularning ta'sir mexanizmlarini, yoshga qarab terapevtik miqdorlarini, dori shakllariga retseptlar yozishni, kiritish yo'llarini, kasalliklarda qo'llanilishiga doir ko'rsatmalarini, nojo'yo ta'sirlarini va qo'llash mumkin bo'lmagan xolatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Modulning vazifasi

- tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti talabalariga turli kasalliklarning oldini olishda ishlatiladigan dori vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni berish;

-modulning umumiy retseptura bo'limida dori moddalarning shakllari, tayyorlanishi va retsept yozishning qonun-qoidalarini o'rgatish,

-umumiy farmakologiya bo'limida dori moddalarning farmakokinetika va farmakodinamikasini taxlil qilish,

-xususiy farmakologiya bo'limida nerv tizimiga, ijrochi a'zolarga, metabolizmga ta'sir etuvchi, mikroorganizmlarga va o'smalarga qarshi bo'lgan moddalar farmakologiyasini o'rgatish,

-dori vositalar bilan zaxarlanishlarda yordam choralarini qo'llay bilishni va amaliyotda ulardan foydalana olishni,

-bolalarda dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasining turli omillar ta'sirida o'zgarishini o'rgatish,

- O'zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanish tarixi va farmakolog olimlarning erishgan yutuqlari bilan tanishtirishdan iborat.

Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

3 semestr yakunida: Talaba:

- dori vositalarining tasnif guruhlarini,
- guruhlarga kiradigan dori vositalarining nomlari,
- ta'sir mexanizmi, ta'sir turlari,
- yoshga nisbatan alohida ko'rsatmalari,
- dori vositalaridan zaxarlanganda ko'rsatiladigan yordam chora- tadbirlari va usullari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- umumiy retsepturaning asosiy qonun-qoidalarini, har xil shakldagi (suyuq, yumshoq, qattiq va ingalyacion) dori vositalarining
- farmakokinetika va farmakodinamika asoslarini,
- dori vositalarining qo'llashga oid ko'rsatmalari,
- nojo'yo ta'sirlari va qo'llashga qarshi ko'rsatmalarini,
- dori vositalarining yangi analoglarini,
- dori vositalar bilan o'tkir zaxarlanish belgilari,
- dori vositalarini ta'sniflash,
- qiyosiy baxolash hamda profilaktika tadbirlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- dori moddalarning faolligini,
- ularning farmakologik xususiyatlari,
- ta'sir mexanizmini hisobga olgan holda taxlil qila olishi,
- dori vositalarning guruhlarini to'g'ri aniqlash,
- dori vositalarini bemorning yoshiga qarab dozlash,
- dori vositalarini kiritish yo'llarini aniqlash,
- vaziyatli masalalarda dori vositalarni to'g'ri tanlash va terapevtik ta'sirini aniqlay bilish,
- retsept yozishning qonun-qoidalarini o'zlashtirish,
- har xil dori vositalarining turli shakllariga retsept yoza bilish va ularni tayyorlash kabi **malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.**

4-semestr yakunida:

- dori moddalarning faolligini, ularning farmakologik xususiyatlari, ta'sir mexanizmini hisobga olgan holda taxlil qila olishi,
- dori vositalarning guruhlarini to'g'ri aniqlash,
- dori vositalarini bemorning yoshiga qarab dozlash,
- dori vositalarini kiritish yo'llarini aniqlash,
- vaziyatli masalalarda dori vositalarni to'g'ri tanlash va terapevtik ta'sirini aniqlay bilish,
- har xil dori vositalarining turli shakllariga retsept yoza bilish va ularni tayyorlash **kabi tasavvurga ega bo'lishi**;
- ijro a'zolariga (nafas, yurak-kon tomir, me'da-ichaklar, endokrin, qon tizimi, infeksiyon va noinfeksiyon yallig'lanish) ta'sir etuvchi dori vositalarining o'ziga xos xususiyatlari,
- dori moddalarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi asoslarini,

- dori vositalarini ta'sniflash,
 - dori vositalarining qo'llashga oid ko'rsatmalari,
 - nojo'yo ta'sirlari va qo'llashga qarshi ko'rsatmalarini,
 - dori vositalarining yangi analoglarini,
 - dori vositalar bilan o'tkir zaxarlanish belgilari, - retsept yozish qoidalarini *bilish va amalda foydalana olish*, -ijro a'zolari (nafas, yurak-qon tomir, me'da-ichaklar, endokrin, qon tizimi, infeksiyon va noinfeksiyon yallig'lanish) patologiyalarida qo'llaniladigan dori vositalarini farqlay bilish
 - dori vositalar farmakodinamikasining o'ziga xos xususiyatlari,
 - dori vositalarining dozasi bemorning yoshi va jinsiga ko'ra to'g'ri hisoblay olish
- dori vositasining shakliga ko'ra ularni organizmga kiritish yo'llari kabi *malakalarga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

Asosiy qism

Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish buyicha umumiy kursatma va tavsiyalar: 3-semestr:

1-mavzu. Fanga kirish. Umumiy farmakologiya.

Farmakologiya faniga kirish, uning tarixi. O'zbekistonda farmakologiya fanining rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan farmakologlar. Yangi dori vositalari yaratilishining asoslari. Dori moddalarining ta'sir turlari. Dori moddalarning farmakokinetik parametrlari: kiritish, taqsimlanish, parchalanish va chiqarish yo'llari. Dozalarning turlari, terapevtik ta'sir kengligi. Moddalar ta'siriga jins, yoshning, genetik omillarning ahamiyati. Dori moddalari organizmga qayta kiritilganda ularning ta'sirlarining o'zgarishi. Dori moddalarning o'zaro ta'siri.

2-mavzu. Antiseptik va dezinfektsiyalovchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi.

Ximioterapiyaning asosiy tamoyillari.

Antibiotiklar. Penitsillinlar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Sefalosporinlar tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Makrolidlar va azalidlar ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Aminoglikozidlar ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. **Sulfanilamidlar** ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar.

Turli kimyoviy tuzilishga ega mikroblarga qarshi vositalar ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar

3-mavzu Silga qarshi vositalar tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar

Viruslarga qarshi vositalar tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari, qo'llashga qarshi ko'rsatmalar.

4-semestr:

4-mavzu. Yurak qon tomir tizimiga ta'sir qiluvchi vositalar.

Antianginal vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Angioprotektorlar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Gipotenziv va gipertenziv vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari.

5-mavzu. Oshqozon-ichak tizimiga ta'sir qiluvchi vositalar.

Istahaga ta'sir qiluvchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Oshqozon bezi faoliyati buzilganda qo'llaniladigan vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Antacid vositalar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Oshqozon osti bezining faoliyatiga ta'sir qiluvchi vositalar. Qustiruvchi va qusishga qarshi vositalar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Ichak peristaltikasiga ta'sir qiluvchi vositalar. Surgi vositalari, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. O't paydo bo'lishiga va ajralishiga ta'sir qiluvchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Gepatoprotektorlar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari.

6-mavzu Qon sistemasiga ta'sir qiluvchi vositalar.

Eritropoezni stimullovchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Leykopoezni stimullovchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Qon ivichiga ta'sir qiluvchi vositalar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Antiagregantlar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Bevosita va bilvosita antikoagulyantlar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Fibrinolitik vositalar va fibrinoliz ingibitorlari, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari. Gemostatiklar, ta'sir mexanizmlari, farmakologik xususiyatlari, qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari.

Moduldagi amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlarining mavzular r o'yxati:

3-semestr:

1-mavzu. Kirish.Retsept va uning tuzilishi. Qattiq dori shakillari

2-mavzu. Suyuq dori shakllari:(eritma, damlama, qaynatma,mikstura,suspenziya,nastoyka , ekstraktlar va in'eksiyalar)

3-mavzu. Yumshoq dori shakllari..

4-mavzu. Umumiy farmakologiya.

5-mavzu. Antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar.

6-mavzu. Antibiotiklar I qismi

7-mavzu. Antibiotiklar II qismi.

8-mavzu. Sulfanilamid preparatlari. Turli kimyoviy tuzilishga ega sintetik antibakterial vositalar.

9-mavzu. Silga qarshi vositalar. Zaxmga qarshi vositalar. Viruslarga qarshi vositalar.

10-mavzu. Mahalliy anestetiklar.Burishtiruvchi,urab oluvchi,adsorbsiyalovchi,qitiqlovchi moddalar.

11-mavzu. M- va N- xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar. Antixolinesteraz vositalar.

M-xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar.

12-mavzu. N-xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi vositalar..

4-semestr:

13-mavzu. Nafas a'zolari faoliyatiga ta'sir etuvchi vositalar.

14-mavzu. Kardiotonik vositalar

15-mavzu. Antianginal vositalar. Gipotenziv vositalar. Gipertenziv vositalar.

16-mavzu. Hazm aʼzolari tizimiga taʼsir etuvchi vositalar. Jigar faoliyatiga taʼsir etuvchi vositalar. Hepatoprotektorlar.

17-mavzu. Diuretik vositalar.

18-mavzu. Qon tizimiga taʼsir etuvchi vositalar.

19-mavzu. Oqsil va polipeptid tuzilishga ega boʻlgan gormonal preparatlar.

Steroid tuzilishga ega boʻlgan gormonal preparatlar.

20-mavzu. Yalligʻlanishga qarshi vositalar. Immunitetga taʼsir etuvchi vositalar. Allergiyaga qarshi vositalar.

21-mavzu. Analgetiklar.

22-mavzu. Etil spirti. Uxlatuvchi vositalar.

23-mavzu. Neyroleptik va anksiolitik vositalar.

24-mavzu. Antidepressantlar. Psixostimulyatorlar.

Amaliy (laboratoriya) mashgʻulotlarini tashkil etish b oʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashgʻulotlar multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir oʻqituvchi tomonidan oʻtkaziladi.

Amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

Amaliy mashgʻulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

Oʻqituvchining innovatsion pedagogik faoliyati b oʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uygʻotish;

Talabada natijani mustaqil ravishda qoʻlga kiritish imkoniyatini taʼminlash;

Talabani nazariy-metodik jixatdan tayyorlash va x.k.

Modul davomida egallanadigan amaliy koʻnikmalar roʻyxati:

3-semestr:

Modul davomida talabalar farmakologiyaning asosiy qonuniyatlarini oʻzlashtiradi, turli kasalliklarda dori vositalarini tayinlash.

Tegishli dozalarni hisoblash va ularga retsept yozish koʻnikmalariga ega boʻladi. Dori vositalarining farmakokinetikasi va farmakodinamikasi, qoʻllash uchun koʻrsatmalar,

nojuya taʼsirlari, dori vositalarining uzaro taʼsirlari, aʼzolar (jigar va buyrakning biokimyoviy koʻrsatkichlari) faoliyatiga bogʻliq xolda dori vositalarini qoʻllashning ehtiyot choralarini, qoʻllashga qarshi koʻrsatmalar.

Dori vositalaridan oʻtkir va surunkali zaxarlanishlarda birinchi tibbiy yordam koʻrsatish tamoyillarini oʻrganadilar.

4-semestr:

Ijro aʼzolari (nafas, yurak-qon tomir, meʼda-ichaklar, endokrin, qon tizimi, infeksiya va noinfeksiya yalligʻlanish) patologiyalarida qoʻllaniladigan dori vositalarini farqlay bilish;

Dori vositalarining taʼsir mexanizmlari va ularning turlari oʻziga xos xususiyatlari;

Bemorning yoshi (pediatrik, geriatric koʻrsatkichlar), jinsi, holati, kundalik hayotiga koʻra dori vositalarining dozasi toʻgʻri tanlay olish;

Dori vositasining shakliga koʻra ularni organizmga kiritish yoʻllarini toʻgʻri tanlashni bilishi **kerak**.

Modulni oʻqitish davomida egallanadigan amaliy koʻnikmalar va kompetensiyalar

Modul davomida talabalar farmakologiya asosiy qonuniyatlarini uzlashtiradi, turli kasalliklarda dori vositalarini tayinlash, tegishli dozalarni xisoblash va ularga retsept yozish koʻnikmalariga ega boʻladi. SHuningdek, dori vositalarining farmakokinetikasi va farmakodinamikasi, qoʻllash uchun koʻrsatmalar, nojuy taʼsirlari, dori vositalarining oʻzaro taʼsirlari, aʼzolar (jigar va buyrakning biokimyoviy koʻrsatkichlari) faoliyatiga bogʻliq holda dori vositalarini qoʻllashning xavf choralari, qoʻllashga qarshi koʻrsatmalar, dori vositalaridan oʻtkir va surunkali zaxarlanishlarda birinchi tibbiy yordam koʻrsatish tamoyillarini oʻrganadilar.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nami, kodi) roʻyxati:

K 1¹. Abstrakt fikr yuritish, hodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega boʻlish;

K 2. Dunyo qarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

K 3. Oʻz-oʻzini rivojlantirishga, anglashga, oʻqishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

K 4. Kasbiy va ijtimoiy faoliyatning har xil turlarida gumanitar, tabiiy, tibbiy-biologik va klinik modullarning uslublarini amaliyotda qoʻllash;

UK 5. Grafik, diagrammalar yoki jadvallar koʻrinishida berilgan hisoblash va eksperimental masalalar, maʼlumotlarga asoslanib turli farmakoterapevtik guruhdagi dori vositalarni taqqoslay olish;

UK 6. Farmakologiyadagi tushuncha va qoidalarni tibbiyot modullaridagi axborotlar bilan mantiqiy bogʻlay olish.

UKK 1². Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida nazariy va amaliy mahoratni qoʻllagan holda qarorlarni izlashga asoslangan daliliy tibbiyotning koʻp masalalarini oʻz ichiga olgan tamoyillarga tayanib tibbiy maʼlumotlarni tizimli tahlil qilishni shakllanishga qobiliyat va tayyorgarlik;

UKK 3. Kelajakda professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun ogʻzaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik koʻrish.

UKK 4. Modulning mazmuni, konun-koidalari va tibbiyotdagi ahamiyatini tushunish va tushuntira olish.

UKK 5. Turli farmakoterapevtik guruhlariga mansub ofitsinal va magistral dori vositalari uchun retseptlarni toʻgʻri va xatosiz rasmiylashtira olish.

Modul davomida oʻquv amaliyotni tashkil etish boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

Talabalarning taʼlim jarayoni tegishli texnik vositalar bilan jixozlangan oʻquv auditoriyalarida oʻtkaziladi. Amaliy mashgʻulotda darsni yoritish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni oʻz ichiga oladi:

Kirish qismi – mashgʻulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, oʻrganilayotgan mavzuning tibbiyotdagi ahamiyati tushuntiriladi.

Asosiy qism. Barcha talabalar ishtirokida darsning nazariy qismi interfaol usullar yordamida muhokama qilinadi. Talabalar uchun yangi bo'lgan masalalarga o'qituvchi tarafidan alohida urg'u beriladi va kerak bo'lganda tushuntiriladi. O'rganilgan mavzu bo'yicha talabalar mustaqil ravishda retsept yozadi va o'qituvchi tomondan baholanadi.

Xulosa – o'rganilayotgan mavzuning asosiy mohiyatlari bo'yicha umumiy xulosalar chiqarilib, talabalar bilimi baholanadi.

Mashg'ulot o'zlashtirilmagan yoki qoldirilgan holatlarda talabaga mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish va qayta topshirish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

3-semestr

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

1. Zamonaviy antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar..
2. Cefalosporin antibiotiklarining yangi avlod vakillari.
3. Gijjalarni davolashda qo'llaniladigan yangi avlod dori vositalari
4. Ichak va ichakdan tashkaridagi gijjalarni davolashda ishlatiladigan dori vositalarining kiyosiy taxlili
5. Odam organizmi tonusini kuchaytiruvchi dori vositalari.
6. Fitopreparatlar va ularning qo'llanilishi..
7. Nikotinizm va uning asoratlari. Nikotinizmning usmirlar va ayollar organizmiga ta'siri.
8. Biologik faol kushimchalar va dori vositalarining kiyosiy taxlili.
9. Polivitaminlarning farmakodinamikasi.

4-semestr

1. Bronxial astmaning farmakoterapiyasi.
2. Utkir va surunkali yurak etishmovchiligida kardiotonik vositalarning axamiyati.
3. Kardiogen shokning farmakoterapiyasi.
4. Renin-angiotenzin sistemasiga ta'sir kiluvchi yangi dori vositalar.
5. Me'da va 12-barmok ichak yarasini davolashda kullangiladigan dori vositalar.
6. Allergik kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori vositalari.
7. Tireotoksikozda ishlatiladigan dori vositalari.
8. Glyukokortikoidlarning nojuya ta'sirlari.
9. Anafilaktik shok va uni davolash.
10. Alkogolizm va uning asoratlari. Alkogolizmning homilaga ta'siri.
11. Narkomaniya va uning asoratlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash;

nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

grafik organayzerlarni mustaqil tuzish va ular yordamida bilimlarni mustahkamlash

ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va x.k.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;

CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish.

modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va x.k.

Farmakologiya moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

Allaeva M.J., Xakimov Z.Z., Ismailov S.R., Aminov S.S., Mustanov B.T.. Farmakologiya. Darslik, T., 2020.

D.A. Xarkevich. Farmakologiya. Uchebnik. M.-2017 g.

D.A. Xarkevich. Farmakologiya. Uchebnik. M.-2021 g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik, T., 2006 y..

Xarkevich D.A. Farmakologiya. Uchebnik - 2015, Moskva «Meditsina»- 750 s.

Manuchair Ebadi. Pharmacology. Textbook. 3- edition, Boston New York Toronto London, 1996.

Vidal. Lekarstvennye preparaty v Uzbekistane. Spravochnik. 2010, M.: AstraFarmServis.

Karen Whalen. Pharmacology. Textbook. 6- edition. «Lippincott illustrated reviews», 2015.

Aminov S.D., Ziyaeva S.H.T., Karimova G.A., Mirzaaxmedova K.T., Kaldybaeva A.O. Umumiy retseptura. Ukuv kullanna, "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent.-2015.

Internet saytlari:

www.evofarm.uz

<http://evbmed.fbm.msu.ru/> Moskovskiy sentr dokazatelnoy meditsiny

<http://www.fda.gov> Administratsiya po produktam i lekarstvum SSHA (FDA)

<http://www.pharmgkb.org/> Resurs po farmakogenetike.

<http://www.tga.health.gov.au/adr/aadrb.htm> Avstraliyskiy byulleten

nejelatelnykh lekarstvennykh reaktsiy

<http://www.mhra.gov.uk/Publications/Safetyguidance/DrugSafetyUpdate/index.htm> Britanskiy ejemesyachnyy byulleten po bezopasnosti lekarstvennykh sredstv

<http://www.drugreg.ru> Fond farmatsevticheskoy informatsii
<http://www.rlsnet.ru> Rossiyskaya ensiklopediya lekarstv (RLS)
<http://nmu-student.narod.ru/farmacology>
<http://www.students>
<http://www.bankreferatov.ru>

Modul dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
Institut Kengashi bayonnomasi № _____ 2023yil " _____ "

Tuzuvchilar:

F.A.Xalmuratova

QTI, «Farmakologiya va farmacevtik
texnologiya» kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Janibekov J. Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi bosh shifokori, t.f.n

Mamutov SH.I. QTI, "Patologiya" kafedrasi mudiri, t.f.n